



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
DAVLAT STATISTIKA QO‘MITASI




# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ISTE‘MOL SEKTORIDAGI INFLYATSIYA DARAJASI

2022- YIL YANVAR

# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ISTE'MOL SEKTORIDAGI INFLYATSIYA DARAJASI

2022- YIL  
YANVAR

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha  
umumiy Iste'mol narxlari indeksi (INI), % da



## TAQQOSLASH UCHUN:

2022- yilning yanvar oyida iste'mol bozori-dagi tovarlar va xizmatlarning INI **0,9 %** ni tashkil etdi.

Yillik nisbatda (2021- yilning yanvar oyiga nisbatan) iste'mol sektorida narxlarning oshish darajasi **9,8 %** ni tashkil etdi.

2022- yil yanvar oyidagi qisqa muddatli umumiy INI o'tgan yilning yanvar oyidagi ko'rsatkichdan **0,1 foiz bandga past** va 2020- yilning yanvar oyidagi mos ko'rsatkichdan **0,3 foiz bandga baland** bo'ldi.


2022- yilning yanvar oyidagi yillik INI 2021- yilning yanvaridagi ko'rsatkichdan **1,8 foiz bandga** va 2020- yilning yanvar oyidagi mos ko'rsatkichidan **4,5 foiz bandga past** bo'ldi.

# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ISTE'MOL SEKTORIDAGI INFLYATSIYA DARAJASI

2022- YIL  
YANVAR

## O'zbekiston Respublikasi bo'yicha umumiy INI dinamikasi, % da

### o'tgan oyga nisbatan




2020- yil

2021- yil

2022- yil

### o'tgan yilning mos oyiga nisbatan



2020- yil

2021- yil

2022- yil

2022- YIL  
YANVAR

**Yanvar oyida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha tovarlar va xizmatlar asosiy guruhlarining INI, % da o'tgan oyga nisbatan**


**2022- yil**



2022- yilning ilk oyida narxlar va tariflar oshishi bo'yicha yetakchilik oziq-ovqat mahsulotlariga tegishli bo'lib, oy davomida ularning narxlari o'rtacha 1,3 % ga oshdi.


Ushbu davrda, nooziq-ovqat mahsulotlar narxlari 0,5 % ga, aholiga pullik xizmatlar narxlari 0,7 % ga oshdi.

**2021- yil**



**TAQQOSLASH UCHUN:** 2021- yilning yanvar oyida oy davomida eng yuqori narxlar o'sishi pullik xizmatlar (1,4 %, ) va oziq-ovqatlar (1,2 %) narxlarida qayd etilgan bo'lsa, nooziq-ovqat mahsulotlar atigi 0,5 % ga qimmatlashgan.




**2020- yil**



2020- yilning yanvar oyida narxlar oshishi bo'yicha mutlaq yetakchilik oziq-ovqat mahsulotlariga tegishli bo'lib, oy davomida ularning narxlari 1,0 % ga qimmatlashgan.

2022- YIL  
YANVAR

## Yanvar oyida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha tovarlar va xizmatlar asosiy guruhlarining INI, % da o'tgan yilning yanvar oyiga nisbatan



Oziq-ovqat mahsulotlari yillik nisbatda narxlar oshishi bo'yicha yetakchi bo'ldi. Shunday qilib, 2022- yilning yanvar oyida 2021- yilning yanvariga nisbatan ularning narxlari o'rtacha 13,1 % ga oshdi. Nooziq-ovqat mahsulotlar va pullik xizmatlar ushbu davrda mos ravishda 7,8 % va 6,9 % ga oshdi.

**TAQQOSLASH UCHUN:** 2021- yilning yanvarida ham oziq-ovqat inflyatsiyasining yetakchiligi (15,5 %, nooziq-ovqat mahsulotlar 9,0 % va xizmatlar 8,2 %) bilan bog'liq o'xshash holat kuzatilgan. 2020- yilning yanvarida ham oziq-ovqatlar ustunlik qilgan (16,7 %). Biroq, xizmatlar narxlarining oshishi nooziq-ovqat mahsulotlarnikiga qaraganda balandroq bo'lgan (15,1 % ga 10,8 %).



Oziq-ovqat mahsulotlari



Nooziq-ovqat mahsulotlar




Xizmatlar

# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ISTE'MOL SEKTORIDAGI INFLYATSIYA DARAJASI

2022- YIL  
YANVAR

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha  
oziq-ovqat mahsulotlari INI, % da

o'tgan oyga nisbatan




2020- yil

2021- yil

2022- yil

o'tgan yilning mos oyiga nisbatan



2020- yil

2021- yil


2022- yil

# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ISTE'MOL SEKTORIDAGI INFLYATSIYA DARAJASI

2022- YIL  
YANVAR

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha  
nooziq-ovqat mahsulotlar INI, % da

o'tgan oyga nisbatan




2020- yil

2021- yil

2022- yil

o'tgan yilning mos oyiga nisbatan



2020- yil

2021- yil


2022- yil

# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ISTE'MOL SEKTORIDAGI INFLYATSIYA DARAJASI

2022- YIL  
YANVAR

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha  
aholiga pullik xizmatlar INI, % da

o'tgan oyga nisbatan




2020- yil

2021- yil

2022- yil

o'tgan yilning mos oyiga nisbatan



2020- yil

2021- yil

2022- yil



2022- YIL  
YANVAR

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha tovarlar va  
xizmatlar asosiy guruhlari narxlari o'zgarishining  
INI o'sishidagi ta'siri, f.d.\*

o'tgan oyga nisbatan

2022- yil  
yanvar



2021- yil  
yanvar



2020- yil  
yanvar






2022- yilning yanvar oyida oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining oshishi hisobiga oylik umumiy INI **0,54 f.d.**, nooziq-ovqat mahsulotlar narxlari hisobiga **0,17 f.d.** ko'tarildi. Xizmatlar tariflarining oshishi umumiy ko'rsatkichga qo'shimcha **0,15 f.d.** ta'sir etdi.

#### TAQQOSLASH UCHUN:

2021- yilning yanvar oyida ham shunga o'xshash oziq-ovqat inflyatsiyasining ustunligi bilan bog'liq holat kuzatilgan. Oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining oshishi hisobiga oylik umumiy INI 0,52 f.d. oshgan.

Yana bir yil oldin, 2020- yil yanvarda ham oziq-ovqat mahsulotlari ta'siri 0,44 f.d.ga yetib, yetakchilik qilgan.

-  Oziq-ovqat mahsulotlari
-  Nooziq-ovqat mahsulotlar
-  Xizmatlar

\* shu yerda va keyingi o'rinlarda foiz darajasida, ta'sir ulushi hisob-kitoblarida ta'sir darajasi bo'yicha ma'lumotlar 0,01 f.d. gacha yaxlitlangan.


# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ISTE'MOL SEKTORIDAGI INFLYATSIYA DARAJASI

2022- YIL  
YANVAR


O'zbekiston Respublikasi bo'yicha tovarlar va  
xizmatlar asosiy guruhlarini narxlarini o'zgarishining  
INI o'sishidagi ta'siri, f.d.

o'tgan yilning yanvariga nisbatan


2022- yil  
yanvar



2021- yil  
yanvar



2020- yil  
yanvar






2022- yilning yanvar oyida yillik nisbatdagi umumiy INI tuzilmasida ham oziq-ovqat inflyatsiyasining ta'siri (5,53 f.d.) yaqqol ajralib turdi.

Nooziq-ovqat mahsulotlari hissasiga 2,71 f.d., xizmatlar hissasiga esa 1,60 f.d. to'g'ri keldi.

## TAQQOSLASH

**UCHUN:** 2021 va 2020- yillarning yanvarida oziq-ovqat inflyatsiyasining yillik umumiy INI o'sish sur'atiga ta'siri yuqoriroq bo'lgan va mos ravishda 6,55 f.d. va 7,11 f.d. ni tashkil etgan.

-  Oziq-ovqat mahsulotlari
-  Nooziq-ovqat mahsulotlar
-  Xizmatlar

# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ISTE'MOL SEKTORIDAGI INFLYATSIYA DARAJASI

2022- YIL  
YANVAR

## 2022- yilning yanvarida Maqsadlar bo'yicha individual iste'mol tasniflagichi – 2018 (O'zR MIIT – 2018) bo'limlari bo'yicha INI, % da


Nomi	2021- yilning dekabriga nisbatan	2021- yilning yanvariga nisbatan
I. Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar	101,3	113,0
II. Spirtli ichimliklar, tamaki mahsulotlari	100,8	111,1
III. Kiyim va poyabzal	100,9	105,9
IV. Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg'i turlari	100,3	102,8
V. Uy-ro'zg'or asboblari, maishiy texnika va turar joylarga kundalik xizmat ko'rsatish	100,8	107,9
VI. Sog'liqni saqlash	101,2	108,9
VII. Transport	99,6	112,3
VIII. Axborot va aloqa	100,2	103,0
IX. Dam olish, sport va madaniyat	101,5	110,2
X. Ta'lim sohasidagi xizmatlar	100,2	111,6
XI. Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari	102,3	115,6
XII. Sug'urtalash va moliyaviy xizmatlar	100,0	100,4
XIII. Maishiy tovarlar va xizmatlar, ijtimoiy himoya va turli tovarlar va xizmatlar	100,8	110,9

2022- YIL  
YANVAR


## Yanvar oyida O'zbekiston Respublikasida "Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar" bo'limi (I) bo'yicha INI, % da

o'tgan oyga nisbatan


### DONLI EKINLAR VA YORMA MAHSULOTLARI




### GO'SHT MAHSULOTLARI




### BALIQ VA BOSHQA DENGIZ MAHSULOTLARI




### SUT, BOSHQA SUT MAHSULOTLARI VA TUXUM



### YOG'LAR VA MOYLAR



### MEVALAR VA YONG'OQLAR




2022- yilning yanvar oyida meva-sabzavot mahsulotlari an'anaviy tarzda oy davomida narxlar oshishi bo'yicha yetakchi o'ringa chiqdi. Shunday qilib, 2021- yilning so'ngi oyiga nisbatan mevalar va yong'oqlar narxlari 3,1 % ga, sabzavotlar, ildiz-mevalilar, plantaynlar va dukkaklilar 5,8 % ga qimmatlashdi.

Go'sht mahsulotlari oy davomida, aksincha, arzonlashdi (o'rtacha 0,4 % ga).


2022- YIL  
YANVAR

## O'zbekiston Respublikasida "Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar" bo'limi (I) bo'yicha INI, % da o'tgan oyga nisbatan


### SABZAVOTLAR, ILDIZMEVALILAR, PLANTAYNLAR VA DUKKAKLILAR




### SHAKAR, QANDOLAT MAHSULOTLARI VA DESERTLAR



### TAYYOR OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI VA BOSHQA OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI



### SPIRTSIZ ICHIMLIKLAR



2022- yilning yanvar oyida o'tgan yilning mos davridagi narxlar o'sishi darajasi-dan oy davomidagi yuqoriroq narxlar oshishi donli ekinlar va yorma mahsulotlari (0,9 %, o'tgan yili 0,6 %) hamda sabzavotlar, ildizmevalilar, plantaynlar va dukkaklilar (5,8 %, o'tgan yili 2,3 %) narxlarida kuzatildi.

2020- yilning yanvar oyida oylik qisqa muddatli narxlar o'zgarishi bilan taqqoslaganda, 2022- yil yanvar oyidagi narxlarning oylik o'sish sur'ati go'sht mahsulotlari (2022- yil yanvar oyida 0,4 % lik narxlar pasayishiga qarshi 2020- yilning yanvarida 0,4 % lik narxlar oshishi) va sut, sut mahsulotlari va tuxumdan (2022- yil yanvar oyida 0,4 % lik narxlar oshishiga qarshi 2020- yilning yanvarida 1,1 % lik narxlar oshishi) ushbu bo'limning deyarli barcha guruhlar bo'yicha yuqori bo'ldi.

2022- YIL  
YANVAR

## O'zbekiston Respublikasida "Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar" bo'limi (I) bo'yicha INI, % da yanvar o'tgan yilning yanvariga nisbatan

### DONLI EKINLAR VA YORMA MAHSULOTLARI



### GO'SHT VA GO'SHT MAHSULOTLARI



### BALIQ VA BOSHQA DENGIZ MAHSULOTLARI



### SUT, BOSHQA SUT MAHSULOTLARI VA TUXUM



### YOG'LAR VA MOYLAR



### MEVALAR VA YONG'OQLAR



2022- yil yanvar oyida yillik nisbatda narxlar oshishi bo'yicha yetakchi o'rinlar sabzavotlar, ildizmevalilar, plantaynlar va dukkaklilar (26,8 %) va yog'-moy mahsulotlariga tegishli (25,0 %). Uchinchi o'rinni mevalar va yong'oqlar hamda shakar, qandolat mahsulotlari va desertlar (14,4 % dan) bo'lishib oldilar.

Baliq va boshqa dengiz mahsulotlari (12,2 %) hamda go'sht mahsulotlari (10,3 %) narxlari sezilarli darajada oshdi. Ushbu bo'limdagi boshqa guruhlarda yillik nisbatdagi narxlar oshishi o'n foizlik chegaradan o'ta olmadi.

2022- YIL  
YANVAR

O'zbekiston Respublikasida "Oziq-ovqat mahsulotlari  
va spirtsiz ichimliklar" bo'limi (I) bo'yicha INI, % da

yanvar o'tgan yilning yanvariga nisbatan

SABZAVOTLAR, ILDIZMEVALILAR,  
PLANTAYNLAR VA DUKKAKLILAR

SHAKAR, QANDOLAT  
MAHSULOTLARI VA DESERTLAR



TAYYOR OZIQ-OVQAT  
MAHSULOTLARI VA BOSHQA  
OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI

SPIRTSIZ ICHIMLIKLAR



2022- yil yanvar oyida o'tgan yilning yanvar oyidagi mos ko'rsatkichga nisbatan sabzavotlar, ildizmevalilar, plantaynlr va dukkaklilar (26,8 % ga nisbatan 7,3 %), tayyor oziq-ovqat mahsulotlari va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari (7,6 % ga nisbatan 7,5 %), spirtsiz ichimliklar (8,4 % ga nisbatan 6,5 %) ko'rsatkichlari balandroq bo'ldi.

**IZOH:** Ushbu tasniflagich BMTning xalqaro standarti – *Classification of Individual Consumption According to Purpose (COICOP) – 2018* asosida shakllantirilgan.

Statistik maqsadlarda 2020- yil uchun INIning O'zR MIIT – 2018 tuzilmasi bo'yicha qayta hisob-kitoblari amalga oshirildi. Shu bilan birga, yig'ma INI hamda uchta asosiy guruhlar bo'yicha INI (oziq-ovqat mahsulotlari, nooziq-ovqat mahsulotlar, aholiga pullik xizmatlar) avval e'lon qilingan ko'rsatkichlarga mos kelgan.


2019- yil uchun O'zR MIIT – 2018 bo'limlari va guruhlari kesimidagi taqqoslama bazaning mavjud bo'lmaganligi sababli 2020- yilning yanvar oyidagi Yillik nisbatdagi INI (2019- yilning yanvariga nisbatan) mazkur tasniflagich bo'limlari va guruhlari kesimida shakllantirilmagan.

# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ISTE'MOL SEKTORIDAGI INFLYATSIYA DARAJASI


2022- YIL  
YANVAR

## O'zbekiston Respublikasi bo'yicha alohida turdagi oziq-ovqat mahsulotlari INI, % da


### GURUCH VA GURUCH OQSHOG'I




### BUG'DOY UNI




### SUYAKLI MOL GO'SHTI




### QO'Y GO'SHTI



### TUXUM



### YANGI SOG'ILGAN SUT



 yanvar o'tgan oyga nisbatan
  yanvar o'tgan yilning yanvariga nisbatan




# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ISTE'MOL SEKTORIDAGI INFLYATSIYA DARAJASI


2022- YIL  
YANVAR

## O'zbekiston Respublikasi bo'yicha alohida turdagi oziq-ovqat mahsulotlari INI, % da


### KUNGABOQAR YOG'I




### PAXTA YOG'I



### SARIYOG'



### SHAKAR



◆ yanvar o'tgan oyga nisbatan      ◆ yanvar o'tgan yilning yanvariga nisbatan

Joriy yilning yanvar oyida **asosiy oziq-ovqat mahsulotlaridan (meva-sabzavotlardan tashqari)** oy davomida sezilarli darajada narxlar o'sishi sariyog' (1,7 %), sut va un (1,3 % dan) hamda shakar (1,0 %) narxlarida qayd etildi.

Narxlarning pasayishi tuxum (-0,9 %), barcha navdagi guruch va guruch oqshog'i (-0,3 %), mol va qo'y go'shti (0,2-0,6 % atrofida) narxlarida qayd etildi.

2022- yil yanvar oyida yillik nisbatda narxlar oshishi bo'yicha yetakchi o'rinlar o'simlik yog'i (1,3 barobarga) va shakarga (23,7 % ga) tegishli bo'ldi. Narxlarning pasayishi guruch (-0,3 %) va tuxumda (-0,1 %) qayd etildi.

# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ISTE'MOL SEKTORIDAGI INFLYATSIYA DARAJASI

2022- YIL  
YANVAR

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha  
alohida turdagi meva-sabzavot mahsulotlari INI, % da  
o'tgan oyga nisbatan

**OLMA**



105,6  
103,9  
107,9

**LIMON**



99,8  
106,0  
96,2

**MANDARIN**



93,8  
97,9  
100,0

**NOK**



102,1  
104,6  
103,9

**BANAN**



99,7  
100,1  
99,2

**BODRING**



118,4  
102,4  
112,3

**POMIDOR**



115,9  
103,4  
109,6

**SABZI**



99,9  
101,3  
100,2

**BULG'OR QALAMPIRI**



115,9  
108,6  
100,0

◆ 2020- yil yanvar

◆ 2021- yil yanvar

◆ 2022- yil yanvar

# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ISTE'MOL SEKTORIDAGI INFLYATSIYA DARAJASI


2022- YIL  
YANVAR

## O'zbekiston Respublikasi bo'yicha alohida turdagi meva-sabzavot mahsulotlari INI, % da o'tgan oyga nisbatan

PIYOZ



KARTOSHKA



SARIMSOQ



KARAM



LAVLAGI



KO'KATLAR



◆ 2020- yil yanvar

◆ 2021- yil yanvar

◆ 2022- yil yanvar

2022- yilning yanvarida meva-sabzavot mahsulotlaridan oy davomida narxlar oshishi bo'yicha yetakchi o'ringa baqlajon (1,3 barobarga) chiqdi. Bundan tashqari, bodring (18,4 % ga), pomidor va bulg'or qalampiri (15,9 % dan), karam (6,6 %), olma

(5,6 %), sarimsoq (5,5 %) va ko'katlar (4,5 %) sezilarli darajada qimmatlashdi.

Oy davomida narxlarning pasayishi bo'yicha mandarin (-6,2 %) va apelsin (-3,5 %) yetakchilik qildi.

# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ISTE'MOL SEKTORIDAGI INFLYATSIYA DARAJASI

2022- YIL  
YANVAR

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha  
alohida turdagi meva-sabzavot mahsulotlari INI, % da  
o'tgan yilning yanvariga nisbatan



\*) Tovar kuzatuv tanlanmasiga 2020- yildan kiritilgan. 2019- yil yanvariga nisbatan INI narxlarni taqqoslash uchun bazaning mavjud bo'lmaganligi sababli shakllantirilmagan.

2022- YIL  
YANVAR

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha  
alohida turdagi meva-sabzavot mahsulotlari INI, % da  
o'tgan yilning yanvariga nisbatan



◆ 2020- yil yanvar

◆ 2021- yil yanvar

◆ 2022- yil yanvar

2022- yilning yanvar oyida yillik nisbatda narxlar oshishi bo'yicha yetakchi uchlikdan karam (1,8 barobar), baqlajon (1,7 barobar) va sabzi (1,6 barobar) o'rin oldi. Lavlagi (39,8 %), qovoq (34,3 %), pomidorlar (32,9 %) sezilarli darajada qimmatlashdi.

O'tgan yilning yanvariga nisbatan narxlarning eng sezilarli darajadagi pasayishi bodring (-14,5 %), banan (-12,6 %) hamda bulg'ori qalampiri (-9,4 %) narxlarida qayd etildi.

\*) Tovar kuzatuv tanlanmasiga 2020- yildan kiritilgan. 2019- yil yanvariga nisbatan INI narxlarni taqqoslash uchun bazaning mavjud bo'lmaganligi sababli shakllantirilmagan.

# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ISTE'MOL SEKTORIDAGI INFLYATSIYA DARAJASI

2022- YIL  
YANVAR

2022- yil yanvar oyida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar asosiy guruhlari narxlari o'zgarishining umumiy INIdagi ta'siri, f.d.

o'tgan oyga nisbatan



Jami ta'siri +0,51 f.d.

- Go'sht mahsulotlari
- Donli ekinlar va yorma mahsulotlari
- Baliq va boshqa dengiz mahsulotlari
- Sut, boshqa sut mahsulotlari va tuxum
- Yog'lar va moylar
- Mevalar va yong'oqlar
- Sabzavotlar, ildizmevalilar, plantaynlar va dukkakililar
- Shakar, qandolat mahsulotlari va desertlar
- Tayyor oziq-ovqat mahsulotlari va boshqa oziq-ovqat mahsulot
- Spirtsiz ichimliklar

2022- yilning yanvar oyida shakllangan qisqa muddatli umumiy INI uchun "Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar" I- bo'limida meva-sabzavot mahsulotlari narxlarining oshishi asosiy inflyatsion omil bo'ldi. Ushbu guruhga kiruvchi tovarlar narxlarining mavsumiy oshishi hisobiga umumiy INI oy davomida 0,4 f.d. yuqoriladi.

Shuningdek, donli ekinlar va yorma mahsulotlari (0,07 f.d.), shakar, qandolat mahsulotlari va

desertlar (0,02 f.d.), sut, boshqa sut mahsulotlari va tuxum (0,02 f.d.) narxlarining oshishi ham salmoqli ta'sir ko'rsatdi. Boshqa guruhlarning jami ta'sir darajasi 0,04 f.d. ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, inflyatsiyani pasaytiruvchi omil sifatida go'sht narxlarining pasayishi xizmat qilib, uning hisobiga umumiy INI 0,04 f.d. pasaydi.


# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ISTE'MOL SEKTORIDAGI INFLYATSIYA DARAJASI

2022- YIL  
YANVAR

2022- yil yanvar oyida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar asosiy guruhlari narxlari o'zgarishining umumiy INIdagi ta'siri, f.d. va % da


o'tgan yilning yanvariga nisbatan

Jami ta'siri +5,2 f.d.



- Donli ekinlar va yorma mahsulotlari
- Go'sht mahsulotlari
- Baliq va boshqa dengiz mahsulotlari
- Sut, boshqa sut mahsulotlari va tuxum
- Yog'lar va moylar
- Mevalar va yong'oqlar
- Sabzavotlar, ildizmevalilar, plantaynlar va dukkaklilar
- Shakar, qandolat mahsulotlari va desertlar
- Tayyor oziq-ovqat mahsulotlari va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari
- Spirtsiz ichimliklar

Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar narxlari oshishining ta'siri = 100 %




2022- yil yanvar oyidagi umumiy INI o'sish sur'atiga ta'siri bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar asosiy guruhlari orasida meva-sabzavotlar, go'sht, yog'-moy mahsulotlari hamda donli ekinlar va yorma mahsulotlari narxlarining o'zgarishi salmoqli ta'sir ko'rsatdi. Sanab o'tilgan guruhlarning jami ta'siri 4,08 f.d.ga yetdi.

2022- YIL  
YANVAR



## O'zbekiston Respublikasida "Spirтли ichimliklar, tamaki mahsulotlari" bo'limi (II) bo'yicha INI, % da


o'tgan oyga nisbatan



2022- yilning yanvar oyida spirтли ichimliklar oy davomida 0,9 % ga, jumladan, aroq va pivo 1,0 % ga, konyak 0,7 % ga, vino 0,5 % ga qimmatlashdi.

Tamaki mahsulotlari ushbu davrda 0,5 % ga, shu jumladan, sigaretlar 0,6 % ga, boshqa tamaki mahsulotlari 0,4 % ga qimmatlashdi.

o'tgan yilning yanvariga nisbatan



2021- yilning yanvariga nisbatan spirтли ichimliklar 10,5 % ga, jumladan, aroq 12,1 % ga, konyak 10,4 % ga, vino 7,4 % ga, pivo 7,2 % ga qimmatlashdi.

Tamaki mahsulotlari 2021-yil yanvaridan 12,5 % ga, shu jumladan, sigaretlar 12,5 % ga, boshqa tamaki mahsulotlari 12,4 % ga qimmatlashdi.



# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ISTE'MOL SEKTORIDAGI INFLYATSIYA DARAJASI


2022- YIL  
YANVAR




## O'zbekiston Respublikasida "Kiyim va poyabzal" bo'limi (III) bo'yicha INI, % da

o'tgan oyga nisbatan

o'tgan yilning yanvariga nisbatan



■ 2022- yil yanvar 2021- yil dekabriga nisbatan ■ 2022- yil yanvar 2021- yil yanvariga nisbatan



Kiyimlar yilning ilk oyida 0,8 % ga, poyabzal 0,9 % ga qimmatlashdi. Shu bilan birga, boshqalarga nisbatan poyabzallarni tozalash, ta'mirlash va ijaraga berish xizmatlari (1,7 %) sezilarliroq qimmatlashdi. Yillik nisbatda kiyimlar 6,2 % ga, poyabzal 5,1 % ga qimmatlashdi. Yillik nisbatda ham narxlar oshishi bo'yicha yetakchilik poyabzallarni tozalash, ta'mirlash va ijaraga berish xizmatlariga (13,5 %) tegishli bo'ldi.

2022- YIL  
YANVAR




## Yanvar oyida O'zbekiston Respublikasida "Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg'i turlari" bo'limi (IV) bo'yicha INI, % da


o'tgan oyga nisbatan

o'tgan yilning yanvariga nisbatan


### TURAR JOY UCHUN AMALDAGI IJARA HAQI \*




### TURAR JOYLARGA XIZMAT KO'RSATISH, TA'MIRLASH VA QO'RIQLASH



### SUV TA'MINOTI VA TURAR JOYLARNI SAQLAB TURISH BILAN BOG'LIQ BOSHQA XIZMATLAR



### ELEKTR, GAZ VA BOSHQA YONILG'I TURLARI



Turar joylarga xizmat ko'rsatish uchun materiallar narxlarining umumiy oshishi fonida 2022- yilning yanvarida sement (-1,3 %) narxlarining pasayganligi qayd etildi. Bundan tashqari, ikkita hududda maishiy chiqindilarni yig'ib olish chiqish xizmatlari tariflarining oshganligi qayd etildi (Qashqadaryo viloyatida 3,7 % ga, Samarqand viloyatida 16,2 % ga). Shuningdek, yanvar oyidan Toshkent viloyatida isiq suv (14,6 %) va isistish tizimi (20,1 %) uchun to'lovlar qiymati ham oshdi.



2020- yil yanvar



2021- yil yanvar



2022- yil yanvar

# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ISTE'MOL SEKTORIDAGI INFLYATSIYA DARAJASI

2022- YIL  
YANVAR

## O'zbekiston Respublikasida "Uy-ro'zg'or asboblari, maishiy texnika va turar joylarga kundalik xizmat ko'rsatish" bo'limi (V) bo'yicha INI, % da

### o'tgan oyga nisbatan



100,1

100,4

100,9

MEBEL, UY-RO'ZG'OR  
ASBOBLARI VA TUKLI  
GILAMLAR



100,3

100,3

100,5

MAISHIY  
ASBOBLAR



100,2

100,4

100,6

UY XO'JALIGINI YURITISH BILAN  
BOG'LIQ HOLDA ISHLATILUVCHI  
TOVARLAR VA XIZMATLAR



100,4

100,3

101,0

UY XO'JALIKLARIDA  
ISHLATILADIGAN TO'QIMACHI-  
LIK MAHSULOTLARI



100,3

100,3

100,5

SHISHA IDISHLAR, OVQAT-  
LANISH UCHUN ASBOBLAR  
VA UY-RO'ZG'OR ANJOMLARI



100,3

100,8

101,0

KUNDALIK TURMUSHDA VA  
BOG'DORCHILIKDA ISHLATILA-  
DIGAN ASBOBLAR VA MOSLAMALAR

### o'tgan yilning yanvariga nisbatan

MEBEL, UY-RO'ZG'OR  
ASBOBLARI VA TUKLI  
GILAMLAR

105,8

107,1

MAISHIY  
ASBOBLAR

106,4

109,3

UY XO'JALIGINI YURITISH BILAN  
BOG'LIQ HOLDA ISHLATILUVCHI  
TOVARLAR VA XIZMATLAR

107,1

106,5

105,0 106,0 107,0 108,0 104,0 106,0 108,0 110,0 106,0 106,5 107,0 107,5

UY XO'JALIKLARIDA  
ISHLATILADIGAN TO'QIMACHI-  
LIK MAHSULOTLARI

108,2

106,6

SHISHA IDISHLAR, OVQAT-  
LANISH UCHUN ASBOBLAR  
VA UY-RO'ZG'OR ANJOMLARI

107,8

106,6

KUNDALIK TURMUSHDA VA  
BOG'DORCHILIKDA ISHLATILA-  
DIGAN ASBOBLAR VA MOSLAMALAR

115,0

108,9

105,0 106,0 107,0 108,0 109,0 106,0 107,0 108,0 105,0 110,0 115,0 120,0

◆ 2020- yil yanvar

◆ 2021- yil yanvar

◆ 2022- yil yanvar

# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ISTE'MOL SEKTORIDAGI INFLYATSIYA DARAJASI

2022- YIL  
YANVAR



O'zbekiston Respublikasida  
“Sog'liqni saqlash” bo'limi (VI) bo'yicha INI, % da

o'tgan oyga nisbatan

o'tgan yilning yanvariga nisbatan

## DORI VOSITALARI VA TIBBIYOT MAHSULOTLARI



2022- yilning yanvar oyida sog'liqni saqlash sohasida kuzatilayotgan asosiy turdagi tovarlar va xizmatlar orasida stomatologok xizmatlar narxlarida sezilarli darajadagi oshish (2,4 % ga) qayd etildi.

Ambulatoriyada va statsionarda davolanish xizmatlari oy davomida mos ravishda 1,3 % va 0,9 % ga qimmatlashdi.

Tibbiy laboratoriyalar xizmatlari oy davomida 1,8 % ga, diagnostika vizualizatsiyasi xizmatlari 1,7 % ga qimmatlashdi.

Yillik nisbatda narxlar oshishi bo'yicha yetakchilik stomatologiya xizmatlariga (12,2 %) tegishli bo'ldi.

## AMBULATORIYADA DAVOLASH BO'YICHA XIZMATLAR



## STATSIONARDA DAVOLASH BO'YICHA XIZMATLAR



## SOG'LIQNI SAQLASH SOHASIDAGI BOSHQA XIZMATLAR



- ◆ 2020- yil yanvar
- ◆ 2021- yil yanvar
- ◆ 2022- yil yanvar

2022- YIL  
YANVAR




## O'zbekiston Respublikasida "Transport" bo'limi (VII) bo'yicha INI, % da

o'tgan oyga nisbatan


o'tgan yilning yanvariga nisbatan




### TRANSPORT VOSITALARINI SOTIB OLISH



### SHAXSIY TRANSPORT VOSITALARIDAN FOYDALANISH



### YO'LOVCHI TASHISH TRANSPORTI XIZMATLARI



### TOVARLARNI TASHISH BO'YICHA XIZMATLAR

◆ 2020- yil yanvar

◆ 2021- yil yanvar

◆ 2022- yil yanvar

2022- yilning yanvar oyi davomida benzin narxi 3,5 % ga, propan 8,5 % ga arzonlashdi. Moylash mahsulotlari aksincha, 0,7 % ga qimmatlashdi.

Bo'limga kiruvchi xizmatlardan narx oshishi bo'yicha yetakchilik havo transportiga (oy davomida 2,0 %) tegishli bo'ldi. Bundan tashqari, transport vositalariga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash xizmatlari (1,9 %) sezilarli darajada qimmatlashdi.

"Transport" bo'limida yillik nisbatda narx oshishi bo'yicha mutlaq yetakchilik benzina tegishli bo'lib, 2021- yilning boshiga nisbatan uning narxi 1,5 barobariga qimmatlashdi.

2022- YIL  
YANVAR

Yanvar oyida O'zbekiston Respublikasida  
"Axborot va aloqa" bo'limi (VIII) bo'yicha INI, % da

o'tgan oyga nisbatan

AXBOROT VA  
KOMMUNIKATSIYA  
USKUNALARI

AXBOROT VA ALOQA  
SOHASIDAGI XIZMATLAR



o'tgan yilning yanvariga nisbatan



2022- yilning yanvarida ushbu bo'limda narx oshishi bo'yicha birinchi o'rin axborot va kommunikatsiya uskunalari ta'mirlash bo'yicha xizmatlarga tegishli bo'ldi (oy davomida 1,5 %). Mobil telefon uskunalari ushbu davrda 0,7 % ga, ovoz va tasvirlarni qabul qilish, yozib olish va namoyish etish uskunalari 0,4 % ga qimmatlashdi.

Axborot va kommunikatsiya uskunalari ta'mirlash bo'yicha xizmatlar 2021- yilning yanvariga nisbatan narxlar oshishi bo'yicha ham yetakchi o'ringa ko'tarildi (16,0 %).

# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ISTE'MOL SEKTORIDAGI INFLYATSIYA DARAJASI

2022- YIL  
YANVAR

**Yanvar oyida O'zbekiston Respublikasida  
“Dam olish, sport va madaniyat” bo‘limi (IX) bo‘yicha INI, % da**

	o'tgan oyga nisbatan	o'tgan yilning yanvariga nisbatan
<b>DAM OLISHNI TASHKIL ETISH BO'YICHA XIZMATLAR</b>	100,2	
	100,6	105,2
	100,7	110,9
<b>MADANIY TADBIRLARNI TASHKIL ETISH BO'YICHA XIZMATLAR</b>	100,4	
	100,1	105,7
	101,4	111,8
<b>KOMPLEKS DAM OLISHNI TASHKIL ETISH</b>	100,0	
	101,5	104,4
	100,0	103,5
<b>BOG'DORCHILIK MAHSULOTLARI VA UY HAYVONLARI</b>	100,0	
	100,2	108,7
	103,0	107,0
<b>GAZETALAR, KITOBLAR VA KANSELYARIYA TOVARLARI</b>	102,6	
	101,5	109,4
	102,7	109,9
<b>DAM OLISH UCHUN BOSHQA TOVARLAR</b>	100,1	
	100,3	107,0
	100,6	106,5

Yil boshidan ana'naviy tarzda gazetalar va davriy nashrlarning narxlari oshishi kuzatilib, ularning narxlari oy davomida o'rtacha 23,2 % ga qimmatlashdi.

Bog'dorchilik mahsulotlari, o'simliklar, urug'lar va gullar o'rtacha 3,0 % ga qimmatlashdi. Muzeylar xizmatlari joriy yilning yanvar oyida 7,2 % ga, teatrlar 3,0 % ga, konsert zallari xizmatlari 1,3 % ga oshdi.

2022- yilning yanvar oyida ushbu bo'lim tovarlari va xizmatlari orasida narx oshishi bo'yicha mutlaq yetakchilik gazetalar va davriy nashrlarga tegishli bo'lib, 2021- yilning boshiga nisbatan 25,9 % ga qimmatlashdi.

◆ 2020- yil yanvar

◆ 2021- yil yanvar

◆ 2022- yil yanvar

31

2022- YIL  
YANVAR

## O'zbekiston Respublikasida "Ta'lim sohasidagi xizmatlar" bo'limi (X) bo'yicha INI, % da

### MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM

o'tgan oyga  
nisbatan

o'tgan yilning  
yanvariga nisbatan

100,0

100,0

100,2

115,2

113,5

2022- yil yanvar oyida pullik ta'lim sohasida chet tillari va boshqa o'quv kurslari uchun to'lov qiymatlarida (0,6 %) oy davomida narxlar oshishi qayd etildi.

### OLIY TA'LIM

100,0

100,0

100,0

100,8

109,8

Repetitorlar xizmatlari oy davomida respublika bo'yicha o'rtacha 0,4 % ga qimmatlashdi.

Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari xizmatlari 0,7 % ga oshdi.

### BOSQICHLARGA BO'LINMAGAN TA'LIM

100,3

100,4

100,5

106,4

112,5

2022- yilning yanvarida yillik nisbatda narx oshishi bo'yicha yetakchilik davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari xizmatlariga (15,0 %) tegishli bo'ldi.



2020- yil yanvar



2021- yil yanvar



2022- yil yanvar



2022- YIL  
YANVAR





## O'zbekiston Respublikasida “Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari” bo‘limi (XI) bo‘yicha INI, % da

OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI  
VA ICHIMLIKLARNI YETKAZIB BERISH  
BO‘YICHA XIZMATLAR

MEHMONXONALAR XIZMATLARI

o‘tgan oyga nisbatan



o‘tgan yilning yanvariga nisbatan



Kafe va oshxonalaridagi tayyor taomlar yilning ilk oyi davomida 1,9 % ga qimmatlashdi. Mehmonxonalar xizmatlari 1,2 % ga qimmatlashdi. Oy davomida narx oshishi bo‘yicha yetakchilik dam olish markazlari, kempinglar va boshqa dam olish muassasalari xizmatlariga tegishli bo‘lib, joriy yilning yanvarida ularning narxlari 11,6 % ga oshdi.

2022- yilning yanvarida yillik nisbatda narx oshishi bo‘yicha birinchi o‘rin tez pishar taomlar tayyorlovchi oshxonalar xizmatlariga tegishli bo‘ldi. 2021- yilning yanvariga nisbatan ularning xizmatlari 18,1 % ga oshdi.



2020- yil yanvar



2021- yil yanvar




2022- yil yanvar

2022- YIL  
YANVAR




## O'zbekiston Respublikasida “Sug'urtalash va moliyaviy xizmatlar” bo'limi (XII) bo'yicha INI, % da

### SUG'URTA



o'tgan oyga nisbatan




o'tgan yilning yanvariga nisbatan


Sug'urta xizmatlari narxlari 2022- yilning yanvar oyida barqarorlikni saqlab qoldi.

2022- yilning yanvar oyida moliyaviy xizmatlar sohasida ularning asosiy turlarining narxlari barqarorligi fonida pul o'tkazmalari uchun to'lovlar qiymatida ko'tarilish (0,1 %) qayd etilib, bu AQSH dollariga nisbatan milliy valyuta kursining o'zgarishi bilan bog'liq.

### MOLIYAVIY XIZMATLAR



o'tgan oyga nisbatan



o'tgan yilning yanvariga nisbatan

Shu bilan birga, yillik nisbatda sug'urta xizmatlari uchun to'lovlar o'zgarishsiz qoldi. Moliyaviy xizmatlar 0,8 % ga qimmatlashdi.

2022- YIL  
YANVAR

## O'zbekiston Respublikasida “Maishiy tovarlar va xizmatlar, ijtimoiy himoya va turli tovarlar va xizmatlar” bo‘limi (XIII) bo‘yicha INI, % da

### MAISHIY TOVARLAR VA XIZMATLAR



o'tgan oyga  
nisbatan

o'tgan yilning  
yanvariga nisbatan

100,4

100,9

101,0

112,6

111,6

2022- yilning yanvar oyida ushbu bo‘limning tovar va xizmatlari asosiy guruhlari-dan sartaroshxonalar (2,0 %) va shaxsiy xizmat ko‘rsatish muassasalari (1,2 %) xizmatlari oy davomida narx oshishi bo‘yicha yetakchi bo‘ldilar.

### SHAXSIY FOYDALANISH UCHUN BOSHQA PREDMETLAR



100,8

100,2

100,5

108,5

106,4

Oy davomida, kserokopiya qil-dirish 1,1 % ga, soatlarni ta'mirlash 0,8 % ga, yo‘l uchun tovarlar, yosh bolalar uchun buyumlar, va boshqa shaxsiy foydalanish uchun buyumlar 0,5 % ga, shaxsiy foydalanish uchun boshqa asboblardan buyumlar va tovarlar 0,6 % ga qimmatlashdi.

### BOSHQA XIZMATLAR



100,1

100,0

100,1

103,9

118,5

2022- yilning yanvar oyida yillik nisbatda narx oshishi bo‘yicha yetakchi uchlikdan sartaroshxonalar (25,5 %), huquqiy tUSDagi (20,7 %) va nusxa ko‘chirish (kserokopiya) xizmatlari (17,6 %) o‘rin oldilar.



2020- yil yanvar



2021- yil yanvar




2022- yil yanvar

# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ISTE'MOL SEKTORIDAGI INFLYATSIYA DARAJASI


2022- YIL  
YANVAR

2022- yil yanvar oyida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha  
O'z R MIIT – 2018 bo'limlari kesimida tovarlar va xizmatlar  
narxlari oshishining umumiy INI o'sishidagi ta'siri, f.d.

## o'tgan oyga nisbatan



## o'tgan yilning yanvariga nisbatan



2022- yilning yanvar oyida oziq-ovqat inflyatsiyasining ustunligi oylik, shuningdek, yillik umumiy INI tuzilmasida ham namoyon bo'ldi. Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar bo'limining oylik yig'ma ko'rsatkich o'sish sur'atiga ta'siri 0,51 f.d.ni, yillik yig'ma ko'rsatkichga esa 5,20 f.d.ni tashkil etdi.

- |  |  |
|--|--|
|  Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar                                     |  Transport  |
|  Spirтли ichimliklar, tamaki mahsulotlari  |  Axborot va aloqa   |
|  Kiyim va poyabzal   |  Dam olish, sport va madaniyat                              |
|  Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg'i turlari                   |  Ta'lim   |
|  Uy-ro'zg'or asboblari, maishiy texnika va turar joylarga kundalik xizmat ko'rsatish |  Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari                    |
|  Sog'liqni saqlash   |  Maishiy tovarlar va xizmatlar, turli tovarlar va xizmatlar |

## Ma'lumot o'rnida



**Iste'mol narxlari indeksi (INI)** bu – iste'mol sektoridagi inflyatsiya darajasini ifodalaydigan muhim ko'rsatkichlardan biri. U o'rtacha iste'molchi tomonidan yakuniy iste'mol uchun sotib olingan tovarlar va xizmatlar o'zgarmas majmui qiymatining o'zgarishini ifodalaydi.

Respublikada INIning hisoblash 1994- yilda XVJning texnik ko'magi ostida joriy qilingan.

INIning shakllantirishga "Iste'mol narxlari indeksi bo'yicha qo'llanma: Nazariya va amaliyot" (XVJ, IHRT, YHSB (Yevrostat), BMT YIK, Butunjahon banki va XMT) tavsiyalarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan Tovarlar va xizmatlarning iste'mol narxlari (tariflari) kuzatuvini tashkil etish hamda iste'mol narxlari indeksini hisoblash bo'yicha uslubiy nizom (Davlat statistika qo'mitasining 2020- yil 30- noyabrdagi 46-son qarori bilan yangi tahriri tasdiqlangan) asos bo'lib xizmat qiladi. <https://lib.stat.uz>

INIning shakllantirish ikkita ma'lumotlar manbasi asosida amalga oshiriladi:

1) uy xo'jaliklarida o'tkaziladigan tanlanma kuzatuvlar ma'lumotlari asosida shakllanadigan aholining iste'mol xarajatlari tarkibi to'g'risidagi ma'lumotlar;

2) hududlar, savdo va xizmat ko'rsatish obyektlari, namuna tovarlar tanlanmasi doirasida narxlarni qayd etish ma'lumotlari.

Narxlar va tariflarni ro'yxatga olish har oyning **10-** sanasidan **20-** sanasigacha amalga oshiriladi.

Narxlar o'zgarishini kuzatish uchun tovarlar va xizmatlar to'plamiga aholi xarajatlari tarkibidagi ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati va vakilligini hisobga olgan holda tanlab olingan **510 ta** mahsulot kiradi.

Har oyda **10 mingdan** ortiq savdo va xizmat ko'rsatish obyektlari kuzatiladi, **110 mingdan** ortiq narx kotirovkalari qayd etiladi.

